



**Tadqiqot uz**

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

**2020**

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**№17**  
30 июнь

**conferences.uz**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 17-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
2 - ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
17-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ- 2**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
17-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART- 2**

**ТОШКЕНТ-2020**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

## "Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 17-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июнь 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 20 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **5. Давлат бошқаруви**

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



### **8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

### **9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тугган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

### **10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

### **11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

### **12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

### **13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

### **14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

### **18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

### **19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

*Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ФАЛСАФА ВА ҲАЁТ СОҲАСИДАГИ ҚАРАШЛАР**

<b>1. Саминов Элёржон Садуллажонович</b> БОЛАЛАРГА НИСБАТАН ЗЎРАВОНЛИКНИНГ ИЖТИМОЙ ЖИҲАТЛАРИ.....	7
<b>2. Djumaniyazova Sharofat Iskandarovna</b> ARMONGA AYLANMAGAN ORZULAR!.....	9
<b>3. Xolmurodov Bahodir, Qodirova Shahodat</b> КІТОВ- МА’НАВИЯТ ХАЗИНАСИДИР .....	10
<b>4. Ахмедова Шахноза</b> АҲИЛ ОИЛА – БАХТЛИ МАКТАБ .....	12
<b>5. Toshpo’latova Zilola Saypillayevna</b> “YOSHLAR TARBIYASIDA KİTOVBXONLIK MADANIYATINING O’RNI” .....	14
<b>6, Abduqodirov Azimbay</b> “MILLIY G‘OYAMIZNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI.....	15
<b>7. Egamberdiyeva Karimaxon Sulaymon qizi</b> ВИРТУАЛ ОЛАМ ТАҲДИДЛАРИ!.....	16
<b>8. Rahmonova Muyassar Nabiyevna</b> BIZ VIRUSGA QARSHI BIRGALIKDA KURASHAMIZ!.....	18



## ФАЛСАФА ВА ҲАЁТ СОҲАСИДАГИ ҚАРАШЛАР

### БОЛАЛАРГА НИСБАТАН ЗЎРАВОНЛИКНИНГ ИЖТИМОИЙ ЖИҲАТЛАРИ

*Саминов Элёржон Садуллажонович*  
*Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги*  
*“Оила” илмий-амалий тадқиқот маркази*  
*бош мутахассиси.*  
*Тел: 99 873-91-59*

**АННОТАЦИЯ:** Ушбу мақолада оилада болаларга нисбатан зўравонлик тушунчаси, унга нисбатан курашиш тадбирлари, зўравонлик ҳолатлари содир бўлишига сабаб бўлувчи вазиятлар, оилани тинч бўлиши омиллари, зўравонлик турлари, мавзу бўйича олиб борилган тадқиқот батафсил ёритилган.

**КАЛИТ СЎЗЛАР:** Зўравонлик, руҳий зўравонлик, кўрқоқлик, руҳий тушкунлик, меҳрибон ва раҳмдиллик, худбин ва бағритошлик, тазйик, қадриятлар.

Фарзандларни комил инсон қилиб вояга етказишда оила асосий омил ҳисобланади. Оилада болаларга нисбатан зўравонликларнинг содир бўлиш ҳолатлари, афсус ҳаммамизни ташвишга солади. Бундай ҳолатлар кўпроқ муаммоли вазиятга тушиб қолган оилаларда рўй беради. Дунёнинг фақат 16 та мамлакатигагина болаларга қарши жисмоний жазолашнинг ҳар қандай кўринишлари ман этилган. Бу эса дунёдаги болаларнинг катта қисми ўз уйларида калтакланиш ва қасддан таҳқирланишдан, катталар билан тенг равишда қонуний ҳимояланган бўлишдан маҳрум деганидир.

Оиласида зўравонлик кўрган болаларнинг 40 % кейинчалик ўзлари шундай ҳаракатни амалга оширишга мойил бўлиб қолишар экан, ҳатто ўзлари бевосита зўравонлик қурбони бўлмасаларда, балоғат ёшига етгандан кейин, ёки зўравонликка дуч келадилар ёки ўзлари шуни содир этадилар.

Зўравонлик ҳолатлари содир бўлишига сабаб бўлувчи вазиятлар:

1. Эр ўз оиласини моддий ва маънавий жиҳатдан бошқара олмаслиги;
2. Оила бошлиғининг спиртли ичимликка, наркотик моддаларни истеъмол қилишга берилганлиги;
3. Аёлларнинг ўз умр йўлдошларига нисбатан кўпол муносабатда бўлиши, ҳиёнаткорлиги, оилада аёллик бурчини ҳис қилмаслиги;
4. Эр-хотин ўртасида ўзаро ҳурматнинг йўқлиги, муомала маданиятини билмасликлари.

Оилада фарзандга нисбатан зўравонликлар ота-оналарнинг укувсизликлари, болага нисбатан бепарволиклари, тарбиялашда жазо усулини қўллашга ўрганганликлари оқибатида содир бўлади.

Бепарволик баъзиларга унчалик ёмон туюлмаслиги мумкин, лекин аслида ёмон ҳолатлар, фожеалар, қотилликларга сабаб бўлиши мумкин.

Зўравонликларнинг натижаси – болада кўрқоқлик, руҳий тушкунлик - бепарволик пайдо бўлади, буларнинг натижаси эса ёмонликка – тошбағирликка, қаҳри қаттиқликка, одам ўлдиришга, қотилликка олиб бориши мумкин.

Ҳозирги кунда ота-оналарнинг болалар билан мулоқотда бўлиш имкониятлари, масалан, юз йил аввалгига нисбатан хаддан зиёд камдир. Мана шундай фактлар асосида катта муаммо, яъни оилада фарзандлар тарбиясига эътибор етарли даражада бўлмаётганлиги,



бу эса зўравонлик ҳолатлари юз беришини келтириб чиқараётганлиги ташвишли ҳолат эканлигини тан олмасдан иложимиз йўқ.

Бундай ҳолатларни олдини олиш учун ота-она ўз фарзандлари билан вақти-вақтида мунтазам гаплашиб, уларнинг тарбиясига вақт ажратишлари, уларга тўғри йўл кўрсатишлари керак бўлади. Агар ота-она оилада ўзларини тутишни билмасалар, ахлоқ-одоб бобида фарзандларига ўрнак бўлиши ўрнига қўпол муомалада бўлсалар, урсалар, сўксалар, камситсалар – бу камситишлар бола хотирасида тузатиб бўлмайдиган оғир асоратлар қолдиради. Оиладаги маънавий муҳит ва тарбия туфайли бола меҳрибон ва раҳмдил ёки худбин ва бағритош бўлиб вояга етади.

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг мутахассислари ва дунёнинг ривожланган 21 мамлакати биргаликда 4 йил мобайнида олиб борган тадқиқотлар натижасида “Болаларга нисбатан зўравонлик дунёда кенг тарқалган ҳодиса” деган хулосага келинди.

60-йилларнинг бошларида болаларга нисбатан зулмнинг сабаби ота-оналарнинг руҳий касаллиги деб қаралар эди, кейин диққат эътибор ижтимоий муаммоларга қаратила бошланди.

Зўравонлик туфайли боланинг руҳиятидаги бузилишлар аввало қуйидагиларда намоён бўлади:

- эмоционал беқарорлик;
- эмоционал бефарқлик;
- салбий ҳиссиётларнинг ижобий ҳиссиётлардан ошиб кетиши.

Эмоционал беқарорлик, салбий ва ижобий ҳиссиётлар ўртасидаги кескин оғишлар ташлаб қўйилган болаларга ҳос бўлиб, яна уларга эмоционал бефарқлик ва депрессия ҳам ҳос бўлади. Зўравонликка дучор бўлган болаларда салбий ҳиссиётлар ижобийларидан юқори бўлади, ижобий ҳиссиётлар камдан кам кузатилади. Уларда асосан ғазаб, таҳлика, қўрқув, хавфсираш ҳиссиётлари мавжуд бўлади. Бунда агар бола ўзида зўравонга нисбатан мавжуд бўлган ҳиссиётни бостирса ёки инкор этса, боладаги ғазаб ичкарига йўналади ва ўзидан нафратланишга ҳамда депрессияга олиб келади.

Зеро, донишманд халқимизда айтилганидек “Гулдан асалари бол, чаён заҳар олади” деганларидек, ёшларимиз шу оилада тарбияланар экан уларда умуминсоний кадриятлар бўлмиш қонун устуворлиги, инсон манфаатлари, ўзаро ёрдам ва миллий тафаккуримизда мавжуд иймон-эътиқод, футувват, меҳр-шафқат, ҳамжихатлик, сабр-қаноат, шукроналик туйғуларини кенг тарғиб қилиш оилага меҳр, зўравонликка нисбатан нафратни тарбиялаш ҳар биримизнинг вазифамиздир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Психология семейных отношений: конспект лекций //Сост. С.А.Великова. – М.: АСТ; - СПб.: Сова, 2005. – 127 с.
2. Каримова В.М. Оилавий ҳаёт психологияси. Т.: 2006. – 142 б.
3. Тарбия / ота-оналар ва мураббийлар учун энциклопедия. Тузувчи: М.Н.Аминов. Масъул муҳар. А.Маждидов. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2010.
4. Куронов М. Болам бахтли бўлсин, десангиз...: ота-оналар учун. - Т.: “Маънавият”, 2013.





## ARMONGA AYLANMAGAN ORZULAR!

*Ajiniyaz nomidagi Nukus Davlat  
Pedagogika institutining Maxsus sirtqi bo'limi,  
boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish  
yo'nalishi 3-kurs talabasi . Ellikqal' a tumani  
27-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
Djumaniyazova Sharofat Iskandarovna.*

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda mamlakatimizda ko'plab sohalarda juda katta ,o'zgarishlar kuzatilmoqda. Shular jumlasidan Prezidentimiz tomonidan 2017- yil 9-avgustda Oliy ta'lim muassasalarida pedagogika yo'nalishida maxsus sirtqi bo'limlarni tashkil etish to'g'risidagi qarori buning yaqqol isbotidir. Nukus Davlat Pedagogika institutining Maxsus sirtqi bo'limida hozirgi kunda tahsil olayotgan 400 dan ortiq talabalarning quvonchi ichiga sig'maydi.

**Kalit so'zlar:** Demak ,o'sha miloddan avvalgi asrlarda ham kitobga bo'lgan e'tibor katta bo'lgan.

Prezidentimizning ta'lim to'g'risidagi qarori , ta'lim sohasida uzliksiz mehnat qilib kelayotgan o'rta maxsus ma'lumotiga ega bo'lgan ko'plab ishchi hodimlarning orzulari armon bo'lib qolmadi. Maxsus sirtqi bo'limda tahsil olayotgan har bir guruh talabalariga Oliy toifali,tajribali, Professir domlalar bilim berib kelmoqda. Bu yerda ta'lim olayotgan talabalar charchoq nimaligini bilmaydi. Maxsus sirtqi bo'limi boshlig'i Q.Bekniyazov har kuni talabalardan habar olib turadi. O'qishimiz uchun barcha shart sharoyitlar yaratib berilgan. Biz talabalar shu ulug' maskanga kelib ko'plab ma'lumotga ega bo'lish bilan bir qatorda yosh avlodni yangi zamonaviy, texnologik metodlardan foydalanib dars o'tishni chuqur o'rganib kelmoqdamiz. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov aytganlaridek "Yoshlarni tarbiyalash – xalqni tarbiyalash demakdir" degan so'zlarini e'tiborga olgan holda mamlakatimizda yosh avlodni tarbiyalashga katta e'tibor qaratilgan. Shunday ekan, kelajagimiz egalari bo'lmish yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, kelajakda ularni yurtimiz bayrog'ini jahon miqyosida yuqori cho'qqilarga olib chiqish yo'lida ta'lim-tarbiya berish, ularning ongida g'oyaviy bo'shliqsiz tarbiyalashdek katta mas'ulyat egalari bo'lmish biz pedagoglarni orzularimiz amalga oshdi. Nukus Davlat Pedagogika institutida tahsil olayotgan talabalar nomidan Yurtboshimiz Shavkat Miramonovich Mirziyayevga Oliy ma'lumotga ega bo'lishdek imkon yaratib berganliklari uchun o'z minnatdorchiligimizni bildirib, bizga bildirilgan ishonchni oqlaymiz!

Kitob insonning do'sti va sakkizinchi mo'jizahamdir degan ekan buyuklar.!

Hayotda insonning har tomonlama yetuk, ma'naviyatli , barkamol shaxs sifatida kamolga yetishishida kitob deb atalmish bebaho xazinaning o'rni benihoya kattadir. Kitob barcha xalqlar uchun ham buyuk mo'jizadir. "Kitob-yer yuzidagi sakkizinchi mo'jizadir.Hech qanday kino,hech qanday teatr,hech qanday internet kitobning o'rnini bosolmaydi.Ko'proq kitob o'qish kerak,"-degan edi sevimli yozuvchimiz O'tkir Hoshimov.

Yevropa uyg'onish davrining taniqli vakili , italyan shoiri Franchesko Petrarka kitobni shunday ta'riflab ko'klarga ko'targan edi. "Kitoblarda o'ziga hos joziba bor.Kitoblar bizga huzur bag'ishlaydi,ular biz bilan suhbatlashadi, bizga oliyjanob va be'minnat maslahatlar beradi, bizning jonli do'stimizga aylanadi". Kitoblar tarixiga to'xtaladigan bo'lsak,qadim-qadimlarda eski-tuski lattalardan tayyorlangan. Keyinchalik uni tayyorlash uchun turli mahsulotlar o'ylab topilgan. Xitoyda ipakdan ,Ossuriyada loy taxtachalardan, Misrda papyrus poyalaridan tayyorlangan. Hatto ossuriya podshosi Oshshurbanapalning loy taxtachalaridan ishlangan mashhur kutubxonasi bo'lgan. Demak ,o'sha miloddan avvalgi asrlarda ham kitobga bo'lgan e'tibor katta bo'lgan desak adashmaymiz.



## КИТОБ- МА'NAVIYAT XAZINASIDIR

*Xolmurodov Bahodir*  
*Samarqand viloyati Jomboy tumani XTB ga*  
*qarashli 40-IDUM da Tarix fani o'qituvchisi.*  
*Jomboy tumani XTB ga qarashli*  
*18-maktab ona tili va adabiyot o'qituvchisi*  
*Qodirova Shahodat*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kitobxonlikni targ'ib qilish va mutolaa ma'daniyatini yuksaltirish g'oyasi ilgari surilgan. Badiiy asarni mutolaa qilish ahamiyat naqadar zarur ekanligi targ'ib qilinadi.

**Kalit so'zlar:** kitob, kitobxonlik, targ'ibot, vatan, yurt, kelajak, mamlakat, burch, ma'daniyat, ma'rifat, ma'naviyat, istiqloq, yoshlar, asar, oila, ilm, tadbir, tanlov.

*Kitob mutolaasiga havas avvalo, oiladan boshlanishi, ota-onalar farzandlarida kitob o'qishga mehr uyg'otishi uchun o'zlari kitobxon bo'lishlari lozim.*

*Shavkat Mirziyoyev*

Mustaqil va navqiron O'zbekistonimizga zukko, aqlli hamda fidoyi yoshlar yarashadi. Ona Vatanga, xalqqa muhabbat, Vatan taqdiri va kelajagi uchun ma'suliyat hissi esa, har bir yosh avlodga avvalo kitob orqali singdiriladi. Kitob- inson hayotini rang-barang qirralarini ochib beruvchi, o'quvchining qalbiga oilaga, vatanga bo'lgan mehrni olib kiruvchi bebaho kuchdir. O'sib kelayotgan har bir yosh avlodga porloq kelajak uchun eng to'g'ri va munosib yo'lni tanlashga yordam beruvchi, biz yoshlarni ma'naviy va ma'daniy dunyomizni boyitishga xizmat qiluvchi, katta-katta orzu maqsadlarga yetaklovchi do'st bu albatta kitobdir. Insoniyat yaratgan mo'jizalar ichida eng buyugi bu-kitob. Kunlardan bir kuni Luqmoni Hakimdan: "Shuncha ilmni qanday to'pladingiz", deb so'rashibdi. Shunda donishmand: "Kitob o'qiyotgan paytlarimda yondirgan chiroq moyini hisoblang, uning qiymati yeb-ichgan narsalarimdan ko'proqdir", deb javob bergan ekan. Agar biz hayot yo'limizda kitob bilan oshno bo'lsak o'ylaymanki hech ham qoqilmaymiz. Hayot haqidagi keng qamrovli fikrlar va haqiqatlarning bari kitoblarda jamlangan. Hayot sur'atlari nihoyatda tezlashib borayotgan bir paytda bizga kitob har qachongidan kerak va zarur. Ze'roki kitob bizga hayotni, yashashni, qanday yo'l tutishni, qaysi yo'ldan borishni o'rgatadi. Bejizga sohibqiron bobomiz A. Temur Kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql idrokning, ilm donishning asosidir, hayotni o'rgatuvchi murabbiydir" deb yozmagan. Asrlar, vaqtlar o'tsa hamki kitobni ahamiyati yo'qolmagan. Faqat kitobxon yoshlar kamayib ketgan. Kitob o'qish ma'daniyati pasayib, sustlashib qolgan. Kitobni avvalo hayotiy maktab, eng yaxshi ustoz ekanligini, jamiyatimiz shuuriga singdirishimiz lozim. Bu borada yurtimizda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan, eng yaxshi yo'l bu-badiiy va ilmiy kitob mutolaa qilish ekanligini hech birimiz unutmashimiz kerak. Kitobxonlikni targ'ib qilishga, mutolaa ma'daniyatini rivojlantirishga yosh-u katta barchamiz birdek ma'sulmiz. Oilada otalarimiz badiiy kitob o'qisa, onalarimiz ibratli asarlar mutolaa qilsa, bolalarda kitobga mehr- muhabbat ortadi. Kitoblarni tanlaganda ham o'quvchining yoshiga, saviyasiga qarab tanlash kitobxonlik ma'daniyatini yuksaltiradi.

Bundan tashqari, mamlakatimiz bo'ylab "Yosh kitobxon bola", "Eng faol kitobxon guruh", "Oilaviy kitobxonlik" va shunga o'xshash bir qancha tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi ma'daniyatimiz va ma'rifatimizni yuksaltirishga qaratilgan ishlardir. Bu jarayonlar yurtboshimizning quydagi fikrlarida ham sezilib turadi: "Ayni paytda, axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do'st bo'lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va



jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ'ib qilishga alohida e'tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi". Xulosa qilib aytganda, biz kitobxonlikni har sohada rivojlantirmog'imiz kerak. Siyosat bo'ladimi, iqtisod bo'ladimi barchasida, avvalo, kitob bizga eng yaqin hamrox. Kitobxonlikni yana va yana rivojlantirish biz yoshlarning asosiy burchimiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Shavkat Mirziyoyev "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" Toshkent 2016-yil 14-bet.
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
3. Ahmad Lutfiy Qozonchi „So'nggi to'fon”.



## АҲИЛ ОИЛА – БАХТЛИ МАКТАБ

*Бухоро вилоят Фиждувон туман  
4- умумий ўрта таълим мактаб  
амалиётчи психологи Ахмедова Шаҳноза*

**Аннотация:** Бу тренингда 5-6 синф ўқувчилари ва уларнинг ота – оналари иштирок этдилар. Бу тренинг уч ҳафта давомида “Ота – оналар сессияси”, “Болалар сессияси” ва “ Оилавий сессия “ кўринишида бўлиб ўтди. Бу дастур нафақат шаҳарда, балки узоқ кишлоқ ҳудудларида яшовчи оилаларга ёрдам бериш учун мўлжалланган.

**Калит сўзлар:** Бўлди , ҳеч қаерга бормайман “,” Мен учун муҳим экан қизиқиб кетяпман “,” Бунақа нарса кутмаган эдим” , “Ҳар доимгидек йиғилиш.

Кўшимча руҳий зарба ҳолати ота –оналарда ва уларнинг фарзандларида хавотир сиқилиш,уйкудаги муаммолар ва кучли жаҳл, алам ёки ғазаб ташқи ёки ички агрессияни келтириб чиқариши мумкин.Бу дастур қийинчилилар ва руҳий зарба ҳолатларидан кучли таъсирланган катталар ва болалар учун мўлжалланмаган.

Тренинг ўтиш учун иккита хона таёрладим.Хонани кайфиятни кўтарадиган дам оладиган, ҳар кун кўриб юрган синф хонасининг кўринишидан мутлақо байрамона тарзда безатдим.Болалар учун ҳам, ота- оналар учун ҳам тренингда керак боладиган жиҳозларни ўн кун давомида олдиндан таёрлаб кўйдим. Бу дастурни ўтказишдан асосий мақсадим ота – оналарга қийинчиликларни енгиш учун улар ривожлантирган кучли томонларини баҳолаш ҳамда кундалик стрессдан кутулиш ва болаларни тарбиялашдаги қийинчиликларни енгиш учун янги кўникмаларни ўрганишга ёрдам бериш ва дастур орқали ота- оналарга болалар тарбиясини енгилаштириш ва самарадорлигини ошириш усулларини тақдим этиш ҳамда муаммоли вазиятда айнан қайси усул ёрдам беришини ўргатишдир.Бу дастурдан ота – оналар стресс ҳолатидан кутулишни қанчалик яхши ўргансалар уларнинг болалари ҳам буни шунчалик яхши удалайдиган бўладилар. Тренингни бошлаш олди ота - оналарнинг кўплари томондан “Тез тугатасизми ? Уйда бешиқда ёш болам бор, Хамир қориб келган эдим, Уйдан телефон бўляпти тез боришим керак, Ишдан бир оз муддатга деб руҳсат олиб келяпман яна тез боришим керак” каби хавотирларини сездириб турувчи саволлар бўлди .Тренинг бошланиб, озроқ тушунчага эга бўлишлари ва машғулотлар уларни жалб қила олиши билан “Бўлди , ҳеч қаерга бормайман “,” Мен учун муҳим экан қизиқиб кетяпман “,” Бунақа нарса кутмаган эдим” , “Ҳар доимгидек йиғилиш ёки маъруза бўлса керак деб уйлагандим” ,”Уй -иш ҳар кунги нарсалар , бу эса биз учун янги ва фойдали экан” деб ўзларининг эмотцияларини билдиришди. Бу эса менга янада улар билан ишлашимда ўзимга ишончни кучайтирди . Машғулотлардан ота –оналарга болаларга нисбатан ўз меҳрларини қандай намоиш қилиш усуллари ва айни пайтда чекловларни қандай ўрнатиш кераклигини билиб олдилар.Шу билан бирга болалар руҳий зарба – бу оддий ҳол эканини ва бундай вазиятда болалар нималарни бошдан кечираётганликларини ота – оналарига айтиб бериш бу энг тўғри йўл эканлигини англадилар. Бу тренингда болалар хафа бўлганларида ўзларини яхшироқ ҳис қилиш учун ўз – ўзларига ёрдам беришнинг айрим усулларини синаб кўрдилар. Катталар ҳам, ёшларда ҳам мавжуд бўладиган вазифалар ва қоидаларни муҳокама қилдилар Оилавий сессияларда ота – оналар ва уларнинг фарзандлари ижобий мулоқот юритиш усулларини қўллаб кўрдилар ва биргалашиб турли ўйинларни ўйнадилар, бу эса ижобий муносабатларни ўрнатиш ва ишончни мустаҳкамлашга хизмат қилди. Улар оилаларининг кучли томонлари ва фазилатлар ҳамда ўз кадрятларини намоиш қилиш учун биргалашиб нималар қилишлари мумкинлиги ҳақида суҳбатлашдилар ва тажриба алмашдилар. Тренинг сўнгида фаол қатнашган оилалар тақдирланди ва ҳар бир ўқувчи ва ота оналар ўзларининг фикр ва мулоҳазаларини ёзма ва оғзаки тарзда баён этдилар. Бунақа тадбирларни янада кўп ўтказишни ва қанча муаммола-



ри бўлсада жон деб қатнашиш истаклари борлиги билдиришлари, уларнинг кўзидаги қувонч ,ҳаётга бўлган, яшашга бўлган завқу - шавқлари мени ҳам кайфиятимни кўтарилишига мотив бўлди ва меҳнатим бесамар кетмаганига ишонч ҳосил қилдим ва бу лойиҳа чет эл олимлари, психологлари томонидан ишлаб чиқилган бўлиб , давлатларда бўладиган турли нохуш ҳодисалар яъни сув тошқини, зилзила ҳамда тарқалиб кетаётган турли юқумли касалликлардан: вабо, ўлат кабилалдан васвасага, хавтирга тушадиган ҳалқни тинчлантириш йўлида фойдаланар экан. Бугунги кунда нафақат Ўзбекистонни балки бутун жаҳонни Каронавирус ваҳимаси чўчитиб кўйган бир пайтда жонажон ўқувчиларимнинг оилаларига ўтган бу тренингимнинг нафи тегиб аҳил ва бахтли оилалар сонини ошишига хизмат қилса ажабмас.Зеро оилалар дуч келадиган қийинчилилар кўп ҳолларда уларни чиниқтириб, иродали , руҳан барқарор ва ақилли инсонлар қилиб тарбиялайди.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Shavkat Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” Toshkent 2016-yil 14-bet.
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
3. Ahmad Lutfiy Qozonchi „So'nggi to'fon”.



## “YOSHLAR TARBIYASIDA KITOBXONLIK MADANIYATINING O’RNI”

*Toshpo’latova Zilola Saypillayevna*  
*Namangan viloyati Chust tuman*  
*14- maktab kutubxonachisi*  
*Tel:99875380*

**Anotatsiya:** Kitob- inson umr yo’llarini yorituvchi so’nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, har qanday vaziyatda ham hamroh bo’lguvchi sodiq do’st. Insonning ruhiy-manaviy kamolotini taminlashda kitobchalik kuchli qudratga ega vosita yo’qdir. Shu boisdan azal-azaldan ma’rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o’qishga, undan ilmu odob sirlarini o’rganishga chorlab kelishgan.

**Kalit so’zlar:** Kompyuter texnologiyalari, internet va axborot-kommunikatsiyalari vositalari va boshqalar.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan Yoshlarning ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo’yicha 5 ta muhim tashabbuslarining aynan 4-tashabbusi yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o’rtasida kitobxonlik madaniyatini keng targ’ib qilish bo’yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo’naltirilganligi yuqoridagi fikrning yaqqol isboti desam mubolag’a bo’lmaydi.

Ayniqsa, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan mazkur masalalarga davlat siyosati darajasida qaralib, samarali ishlar yo’lga qo’yilayotgani quvonarli hol albatta.

Shuncha sa’y-harakatlar kim uchun? Albatta, biz yoshlar uchun, negaki, ertangi kunning egasi, kelajakning mustahkam poydevorlari biz yoshlar hisoblanamiz. Jahon hamjamiyatida sog’lom raqobat qila oladigan, sog’lom fikrlashga ega bo’ladigan, xorijiy innavatsion g’oyalarga ega bo’ladigan, zamonaviy ta’lim tizimini har tomonlama mustahkam tarzda targ’ib qila oladigan, bir so’z bilan aytganda yurtimizdagi har bir soxada faol buladigan, muhtaram Prezidentimizning har bir chaqiriqlariga labbay deb javob bera oladigan yoshlar bo’lishimiz uchun beminnat xazina hisoblangan ya’ni kitob hayotimizda muhim ahamiyat kasb etadi. Kitob, avvalo, hayotiy maktab, ma’naviyat manbai. U kitobxonni hayot bilan tanishtiradi, unda hayotni sevish, yashash mohiyatini anglash hislarini tarbiyalaydi. Atrof-muhitga, tabiatga ijobiy munosabatini shakllantiradi, inson xarakterining murakkabligini tushuntiradi, ruhiy qiyofaning rangin qirralarini kashf qilish qobiliyatini, ona Vatanga, xalqiga sadoqatli bo’lish tuyg’usini o’stiradi. Badiiy adabiyot o’qish orqali kitobxonning badiiy idroki, mustaqil fikrlash qobiliyati, mutolaa madaniyati, Vatan taqdiri uchun javobgarlik tuyg’usi tarbiyalanadi. Hoh badiiy kitob bo’lsin, hoh ilmiy lekin barcha kitoblarning xotimasida ezgulik yotadi, kitob inson kamolotini ezgulikka chorlaydi.

Yoshlar tarbiyasining barcha mezon va unsurlari, avvalo, oilada shakllantirilganidek, kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashda ham oilaning o’rni nihoyatda kattadir. Qush uyasida ko’rganini qiladi, degan naqlga tayansak, bu mohiyat yanada dolzarb bosqichga ko’tariladi. Kitobxon ota-onalarning farzandi ham kitobgao’zgacha mehr ko’rsatadi., bu ma’naviyat xazinasiga tabiiy qiziqish va intilish tuyadi. Kitob dunyosiga oshufta, adabiy olamga hamnafas, badiiyatdan bahramand qalb egasi o’zidagi bu tuyg’u va fazilatlarini atrofdagilarga, ayniqsa, oilasiga ham yuqtirishi, singdirishi ehtimoli yuqori. Shu bois kitobxon avlod tarbiyasida, avvalo, ota onaning tarbiyali bo’lishi, badiiy adabiyotga oshno ekanligi muhim zaruriyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Shavkat Mirziyoyev. Xarakterlar strategiyasi.- Adolat nashriyoti. 112-bet. 2017.
2. Yoshlarga donolar o’giti/ tuzuvchilar: O.Salimov, Q.Qurbonboyev, M.Bekmurodov, L.Tangriyev, N.Xalilov,-Toshkent, G’afur-G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018-236 b



## MILLIY G'UYAMIZNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

*Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani  
2-son umumiy o'rta ta'lim maktabining  
Milliy g'oya va huquq fani o'qituvchisi  
Abduqodirov Azimbay*

**Annotatsiya:** Har qanday millatning taraqqiyoti jamiyatdagi yoshlar qatlamining milily g'oya va qadriyatlarga munosabati, uning yoshlar ongiga qanday tasir etayotganligiga hamda amaliy faoliyatlariga qanday tarzda tayanishlariga bog'liq ekan, maqolada mana shular haqida chuqur ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** g'oya, avlod-ajdod, yoshlar, kelajak, iqtidor, e'tiqod, qadriyat, ma'naviyat, mafkura, ong, ishonch.

Milliy g'oya deganda, ajdodlardan-avlodlarga o'tib, asrlar davomida ezozlanib kelayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma'naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, tabir joiz bo'lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu-intilish va umid – maqsadlarini o'imizga tasavvur qiladigan bo'lsak, o'ylaymanki, bunda keng ma'noli tushunchaning mazmu-mohiyatini ifoda qilgan bo'lardi.

Yoshlar respublikamiz aholisining yarmidan ko'pini tashkil etadi. Shuningdek, yoshlarning milliy g'oyani anglashi ishonch va eiqodiga aylanishi, qanday yangi qadriyatlar shakllantirilganligi bilan ham bog'liq bo'ladi. Chunki milliy g'oyabir tomondan, yoshlarni o'zining obyekt sifatida qarasa, ikkinchi tomondan yoshlar milliy g'oyaning ilg'or rivojlantiruvchilari va kelajak avlodga yetkazuvchilari hisoblanadilar. Uchinchidan, yoshlar qanchalik milliy g'oya bilan qurollangan va uni anglab olgan bo'lsa, jamiyat shunchalik taraqqiyotga erishadi. Bu holat milliy g'oya va yoshlarning o'zaro bog'liqligini belgilaydi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, milliy g'oya qanchalik mazmunli, har bir kishining uzoqda mo'ljallangan maqsad va manfaatlari, pirovardida esa, millatning istiqbolini belgilashga xizmat qiladigan bo'lsa, uni yoshlar shunchalik tez qabul qiladi va unga nisbatan o'zining ijobiy munosabati shakllanadi. Demak, jamiyat milliy mafkura orqali yoshlarga qanday g'oya va fikrlarni taklif etsa, shunga mos ravishda g'oyaviy chiniqqan, vatanparvar, zamonaviy bilimlarni egallagan yoshlarga ega bo'ladi. Eng muhimi shundaki, har bir jamiyatda qanday maqsadda bo'lmasin yangi g'oya va konsepsiyalarga nisbatan yoshlar o'z munosabatini bildiradi va aholining boshqa qatlamiga nisbatan tezroq qabul qiladi. Chunki yoshlar faziologik va psixologik jihatdan hali shakllanish bosqichida bo'lgani uchun ularda yangiliklarga nisbatan qiziqish kuchli bo'ladi va uni eiqodiga aylantirish ehtiyoji katta bo'ladi. Shuningdek, yoshlar o'zlarining ijtimoiy-ruhiy va boshqa jihatlariga ko'ra salbiy hodisalarga tez beriluvchanlik, jamiyatdagi o'zgaruvchan sharoitga moslashish qobiliyatining yuqori ekanligi bilan ajralib turadi. Ular jamiyatning shunday ijtimoiy guruhiga mansubki, ular o'tkir hissiy bilish qobiliyatiga ega bo'lib, so'z bilan amaliyotning nomutanosibli holatlarini kuchliroq sezadilar. Kattalar uchun odatiy bo'lgan ayrim «adolatsizlik»lar yoshlarning hali to'liq shakllanmagan ongiga, dunyoqarashiga kuchli yetkazishi mumkin. Shuning uchun hozirgi kunda yoshlar orasida milily g'oya, milliy g'urur va or-nomus bilan bog'liq ma'naviy-ruhiy xolatlar muhim ahamiyatga ega.

Yoshlarning oldida haqiqatni aytishdan cho'chimaslik, soxtakorlikdan qochish, mavjud qiyinchiliklar, muammolarni ochiq-oydin bayon etish lozim. Ayni paytda, davlatimiz rahbariyati olib borayotgan ijobiy ishlar va mavjud muammolarni bartaraf etish uchun olib borilayotgan say harakatlari va erishilayotgan amaliy natijalar xususida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e'ibor berish yoshlarning jamiyatimiz, davlatimiz, mustaqilligimizga bo'lgan ishonch-eiqodini mustahkamlash olimlarimiz, peshqadam ziyolilarimiz, ma'uchilarimiz, mafkuraviy ishlar bilan shug'ullanuvchi barcha targ'ibot-tashviqotchilarning birinchi darajali vazifa hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Alimova D. Insoniyat tarixi–g'oyalar va mafkuralar tarixidir.—T.: Ijod dunyosi, 2002.-32 b.
2. Boboeva E. Yoshlar va g'oyaviy kurash.—T.:1985.-27 b.
3. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi.—T.: Ijod dunyosi, 2002.-30 b.



## ВИРТУАЛ ОЛАМ ТАҲДИДЛАРИ!

*Andijon shahar 13-IDUM tarix fani o'qituvchisi  
Egamberdiyeva Karimaxon Sulaymon qizi*

**Аннотация:** Ушбу мақола виртуал таҳдидлар туфайли келиб чиқаётган ўсмир ёшлардаги психологик муаммоларни ёритишга қаратилган.

**Калит сўзлар:** Виртуал ўйинлар, ижобий ва салбий воқеликлар, ижтимоий муаммолар.

Техника тараққиёти жадал суръатларда ривожланиб бораётган бир даврда янгидан янги қулайликлари кашф этилмоқда. Аммо шу билан бирга, зарарли жиҳатлари ҳам бизни четлаб ўтмаяпти.

Қисқа фурсатларда жамиятнинг барча соҳаларига компьютернинг кириб келиши, ижтимоий ҳаётимиздан у билан боғлиқ хизматларнинг тобора кенг ўрин олаётгани, компьютердан тижорат мақсадида фойдаланишнинг кун сайин такомиллашиб бораётгани талайгина муаммоларни ҳам келтириб чиқармоқда. Хусусан, мўмай даромад топиш илинжида айрим тадбиркорлар томонидан компьютер ўйингоҳларининг очилиши оз вақт ичида кўплаб ёшларни (айниқса ривожланган давлатларда) ўз аудиториясига қамраб олди.

Тан олиш керак, ҳозирда умумтаълим мактаблари ҳамда ўсмир ёшидаги кўплаб ёшларнинг компьютер клубларида мониторга тикилган ҳолда соатлаб ўтирганларига гувоҳ бўламиз. Бу ачинарли ҳол.

Ижобий воқеликдан кўра салбий нарса ёки воқеликка тез кўникиш уйғониши инсонга хос психологик хусусиятдир. Ўсиб келаётган ёшларда ҳаётининг малаканинг йўқлиги, мустақил фикрлаш ёки ижобий ва салбий жараёнларни таққослаш, қийинлаш қобилияти ҳали -бери шаклланмаганлиги уларнинг компьютер ўйинларига қаттиқ боғланиб қолишига сабаб бўлмоқда. Ваҳшийлик, зўравонлик, жангариликни тарғиб қилувчи турли ўйинлардаги даҳшатли сахналар, очикдан очик одам ўлдириш ҳолатларини киприк қокмай кўравериш ўсмирларнинг дийдаси қотиб, улардаги меҳрибонлик, ачиниш, раҳм-шавқат туйғуларининг йўқолиб боришига замин яратаётгани ҳам бор гап. Яна бир хавотирли жиҳати шундаки, жангарилик ва зўравонлик акс этган сахналар ёшлар руҳиятига қаттиқ шикаст етказиши тажрибаларда бир неча бор синалган.

Россияда содир бўлган воқеа фикримизни тасдиқлайди. Мактаб ёшидаги ўсмир компьютер ўйинларига боғланиб қолиши оқибатида росмана унинг қулига айланади. Яқинларининг ҳар қанча тергашлари ҳам унга таъсир қилмайди. Кунларнинг бирида жангарилар ҳақидаги ўйин билан машғул бола онасининг навбатдаги тергашларидан ўзини тутолмай қолади ва кўлига илинган болтани кўтарганча онаси томон ташланади...

Биргина мана шу воқеанинг ўзиёқ компьютер ўйинлари келтириб чиқараётган салбий иллатларнинг қанчалик катта хавфга эга эканлиги, энг ёмони бу ўсмирларда эндигина шаклланиб келаётган ижобий ҳислатларни ҳам бутунлай йўқ қилаётганлигини тасдиқлайди.

Одатда, компьютер ўйинлари икки турга бўлинади: буларнинг биринчиси яратувчанликни ифодалаган, муайян бир ижобий воқеликни акс эттирган ўйинлар, иккинчиси эса ўзида ҳеч қандай ижобий мақсадни ифода этмаган, аксинча, зўравонлик, ваҳшийлик, жангарилик ва бузғунчиликни акс эттирган ўйинлар. Компьютер ўйинлари келтириб чиқараётган тузатиб бўлмас зарарлар эса янада хавфлидир. Яна бир мисол, Жанубий Кореялик ўсмир компьютер ўйинларига ҳаддан ташқари боғланиши оқибатида, оддийлик босқичидан тортиб юқори босқичи энг мураккаб бўлган жараёнларни қамраб олган ўйиннинг сўнгги босқичини забт этишга уринади ва шу таҳлит 18 соат (!!!) вақт давомида компьютер қаршисида ўтиради, орада 5-10 дақиқа овқатланиш учун вақт ажратади холос. Узлуксиз ўйин ўйнаши оқибатида мия қон томирлари зўриқади ва... Ўсмир компьютер қаршисида жон беради. Ажабланарлиси шундаки, ўсмир ўлаётганини билса-да ўйинни давом эттирган. Кузатувлардан маълум бўлишича, компьютер қаршисида соатлаб ўтирган ўсмирнинг танасида қон яхши айланмайди ва умуртқа суяклари қийшайиши натижасида





организмда салбий жиҳатлар кўзга ташланади. Иккинчидан, мониторга узоқ ва давомли тикилиб ўтириш натижасида инсоннинг кўзи хиралашади, куриб қолади. Бу ўз навбатида турли касалликларни чақиради. Қолаверса компьютер ўйинларига боғланиб қолган ёшлар асабий, жирраки, ота-онасининг тергашини, панд-насихатни ёқтирмайдиган бўлиб қолади. Ўз айбини ёпиш учун эса бошқалар билан қўпол муомалада бўлади. Учинчидан, ўсмирлардаги руҳий ўзгаришлар туфайли уларнинг бирор -бир наф келтирадиган фаолият билан шуғулланишга бўлган иштиёқи пасаяди. Атрофдаги реал воқеа -ҳодисаларга лоқайдлиги, бекфарқлиги кучаяди, ижтимоий ҳаётдан деярли узилиб, ўз қобиғига ўралашиб қолади. Бундан ташқари, салбий омиллар таъсирида миянинг ишлаш фаолияти бузилади, догматик ва агрессив хусусиятлар шаклланиши ўсмир ёшларнинг жиноятга мойиллигини оширади.

Бундай салбий иллатларни бартараф етишнинг йўли битта. У ҳам бўлса ёшларни Ватанпарварлик ва бунёдкорлик ғоялари руҳида тарбиялаш, маънавий – марифий ишлар самарадорлигини ва таъсирчанлигини янада кучайтириш уларда кучли маънавий иммунитетни ҳосил қилиш билангина ўз мақсадимизга эрмшамиз.

Азиз ватандош! Ёшлар миллатимиз келажаги. Уларни техника асрини зарарли салбий таҳдидларидан асраш- ҳар биримизнинг бурчимиздир.

Ушбу мақола интернет маълумотлари ва теле кўрсатув маълумотлари асосида тайёрланди



## BIZ VIRUSGA QARSHI BIRGALIKDA KURASHAMIZ!

*Rahmonova Muyassar Nabiyevna*  
*Chust tuman 4-umumiy o'rta ta'lim*  
*maktabi biologiya fani o'qtuvchisi*  
*Telefon:+998911819020*  
*Rahmonovamuyassar@gmail.com*

**Anotasiya:** Ma'lumki viruslar hujayra ichi parazitini hisoblanib, hujayra ichiga kirib nobud qiladi va boshqa hujayralarga hujum qiladi. Doim ham hujayradan tashqariga chiqmagan viruslar hujayra genomi bilan birlashib ketishi mumkin million yillik bunday viruslar inson organizmidagi buyurmalarini bajarishga majbur qiladi, genetik boshqarish tugmachasiga aylanadi. Bunday viruslar organizmni o'zgaruvchan muhitga moslashtiradi va yangi turlarni kelib chiqishiga sababchi bo'ladi

**Kalit sozlar:** viruslar IKA, Ebola, gripp,

IKA, Ebola, gripp, hatto zerikarli eski oddiy shamolash – barcha insoniyatni yuqtiradigan viruslar bilan tanishimiz. Ammo ular bizni xasta qilishlarini bilsak-da, millionlab yillar davomida biz ushbu ayyor bosqinchilarni qo'llab-quvvatlab, ularni uyga keltirganimizni bilish ajablanarli bo'lishi mumkin. Hayotning dastlabki bosqichlaridan boshlab yuzimizdagi tabassumlarga qadar viruslar bizning odam turimizga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Viruslar oqsil qatlamiga o'ralgan (odatda RNK deb nomlangan molekula shaklida) genlardan iborat bo'lib, va ularning barchasi bir xil asosiy usulda ishlaydi. Virus hujayrani yuqtirganida, u o'z genlarini nusxalash va virusli oqsillarni yo'q qilish uchun hujayraning o'ziga xos molekulyar texnikasini o'g'irlaydi. Yangi ishlab chiqarilgan qismlardan yangi viruslar yig'ilib, ular hujum qilish uchun yangi hujayralarni qidirib topadilar. Gripp kabi ko'plab viruslar uchun voqea shu bilan tugaydi. Ammo bir nechta retroviruslar, shu jumladan OIV ham bizning DNKimizga yashirincha kirib borishmoqda. Ular o'zlarini tasodifiy ravishda organizmning genomiga kiritadilar, virusni qayta ishlab chiqarishni boshlash uchun vaqt yetarli bo'lmaguncha yotadilar. Ammo retrovirus organizmning DNKsiga tushib qolsa, uning saqlanib qolishiga kafolat yo'q. Genetik ko'rsatmalar o'rnatilgan virusdan «o'qilishi» mumkin, DNKga aylantiriladi va keyin genomning boshqa joyiga joylashtiriladi. Ushbu siklni qayta-qayta takrorlab va virusli DNKning bir nechta nusxalari tezda hosil bo'ladi.

Millionlab yillar davomida, ushbu virusli DNK ketma-ketlari tasodifiy mutatsiyaga uchraydi va o'zgaradi, shu bilan mezbon hujayralardan ajralib chiqish qobiliyatini yo'qotadi. Genom ichiga tushirilgan ushbu «endogen» retroviruslarning ba'zilarini hanuzgacha sakrab o'tishlari mumkin, boshqalari esa ular oxirgi qo'ngan erda abadiy qolishadi. Agar bu hodisalar tuxum va sperma hosil qiladigan mikroorganizmlarida ro'y bersa, ular avlodlarga o'tib, oxir oqibat organizm genomining doimiy qismiga aylanadi. Inson genomining yarmiga yaqini uzoq vaqt o'lik viruslar yoki shunga o'xshash «sakrash genlari» tomonidan kuzatilishi mumkin bo'lgan millionlab DNK ketma-ketligidan iborat bo'lib, ular birgalikda birgalikda transpozon elementlar yoki transpozonlar sifatida tanilgan. Ba'zi tadqiqotchilar qadimgi ketma-ketliklar kabi bu ko'rsatkichni hatto 80 foizga etkazishlari mumkin edi

ma'lum darajada virusga o'xshash, genom ichida molekulyar qoldiqlarga o'xshab ob-havoga singib ketishdan tashqari, buzilgan. Ko'p yillar davomida inson genomiga kiruvchi takroriy virusga asoslangan DNKning katta qismlari «arzimas» deb bekor qilindi. Ushbu takrorlanadigan narsalarning nisbati, shubhasiz, bizning genetik magistrimizdagi axlatdan ozroqdir, ammo tadqiqotchilar individual virus elementlariga diqqat bilan qarashlari natijasida yanada murakkab rasm paydo bo'ladi. Va ma'lum bo'ladiki, bizning genetik dushmanlarimiz bilan bir qatorda, bizning genomimizga kiritilgan ba'zi viruslar bizning qulimizga aylandi.

Viruslar, shuningdek, genlarni o'xshaydigan molekullarni jalb qiladigan DNK ketma-ketligiga to'la. Funktsional retrovirusda ushbu «kalitlar» virusli genlarni faollashtiradi, shunda ular yana yuqumli bo'lishi mumkin. Ammo, virusga o'xshash ketma-ketlik genomning boshqa mintaqasiga tarqalganda, bu genetik kommutator rolini o'ynashi aynanchli oqibatlariga olib kelishi



mumkin. 2016 yilda Utah universiteti olimlari inson genomidagi endogen retrovirus, taxminan 45 milliondan 60 million yil avval ota-bobolarimizni yuqtirgan virusdan kelib chiqqanligini, AIM2 deb nomlangan molekulani aniqlaganida, unga o'tishni boshladilar. Interferon, bu virusni yuqtirganligi haqida tanani ogohlantiradigan «xavfli signal». Keyin AIM2 infeksiyani boshqa tarqalishining oldini olish uchun, zararlangan hujayralarni o'z-o'zini yo'q qilishga majbur qiladi. Ushbu qadimiy viruslar «ikkitomonlama agentlar» ga aylanib, hujayralarimizga bizga hujum qilmoqchi bo'lgan boshqa viruslarga qarshi turishga yordam beradi. Bizning turlarimizni shakllantirgan virusning yana bir misoli PRODH nomli gen yaqinida joylashgan. PRODH bizning miya hujayralarimizda, xususan, hipokampusda mavjud.

Odamlarda gen uzoq o'lik retrovirusdan qilingan boshqaruv tugmachasi bilan faollashadi. Shimpanze ham PRODH genining versiyasiga ega, ammo bu ularning miyasida unchalik faol emas. Mumkin bo'lgan bir izoh, bu qadimgi virus million yillar oldin bizning uzoq o'tmishdagi ajdodlarimizdan birida PRODH yonida o'z nusxasini urib qo'ygan, ammo bugungi kunda bu nasldan naslga o'tishni boshlagan ajdodlarimizda bo'lmagan. Bugungi kunda PRODH nuqsonlari miyaning ma'lum bir buzilishlarida ishtirok etadi deb taxmin qilinadi, shuning uchun bu juda katta ehtimol hech bo'lmaganda inson miyalarining elektr o'tkazmalariga biron bir ta'sir ko'rsatganda. Shunga o'xshab, genetik o'zgartiruvchilar o'zgarishi bizning bachadonimizda o'sganimizda insonning yuzini yaratadigan hujayralar va shimpanzalar orasidagi farq uchun javobgardir. Garchi bizning genlarimiz shimpanze genlari bilan deyarli bir xil bo'lsa-da, lekin biz bir xil ko'rinishga ega emasmiz. Shunday qilib, farq boshqaruv kalitlarida bo'lishi kerak. DNK ketma-ketliklariga ko'ra, bizning yuzlarimizni o'stiradigan hujayralardagi faol almashinuvlarning aksariyati dastlab viruslardan kelib chiqqan ko'rinadi, ular bizning hozirgi evolyutsion sayohatimiz vaqtida qaysidir joyda paydo bo'lgan bo'lishi kerak.

Bizning biologiyamizni o'zgartirgan uzoq o'lik viruslar misollarini izlash bilan bir qatorda, olimlar ularning ta'sirini boshqaradigan mexanizmlarni izlamoqda. Asosiy aybdorlar KRAB Sink Barmoq Proteinlari (KRAB ZFPs) deb nomlangan maxsus susaytiruvchi molekulalar bo'lib, ular genomdagi virusli ketma-ketlikni ushlab, ularni joyiga osib qo'yadilar. Prof Didier Trono va uning Shveysariyadagi Lozanna universitetidagi jamoasi 300 dan ortiq turli KRAB ZFPlarni inson genomida topdilar, ularning har biri virusdan olingan boshqa DNK maqsadini ma'qul ko'radilar. U erda bir marta, ular genlarni yoqadigan yoki o'chiradigan molekulyar mexanizmlarni yollashga yordam beradi. «Ushbu KRAB ZFPlar ushbu endogen retroviruslarning» qotillari «sifatida ko'rilgan», deydi Trono. «Ammo ular aslida bu elementlarni ekspluatatsiya qiluvchilarga organizmga ushbu virusli ketma-ketlikda yashaydigan imkoniyatlardan foydalanish imkoniyatini beradi». Trono va uning jamoasi KRAB ZFP faol zararli bo'lgan virusli ketma-ketliklar va yo'q bo'lgan aloqalar orasidagi etishmayotgan bog'liqlik deb hisoblashadi. boshqarish kalitlariga bo'ysunish. Ularda proteinlar virus elementlari bilan bir qatorda «qurollanish poygasi» shaklida rivojlanib, dastlab ularni bostirgan, ammo keyinchalik ularni engib o'tganliklari haqida dalillar mavjud. «Biz ularning qilayotgan ishlari bu elementlarni uyg'unlashtiradi deb o'ylaymiz», deydi Trono. «Va uyga kirib, men shunchaki viruslarning saqlanishiga ishonch hosil qilishni emas, balki ularni uy egasi uchun foydali bo'lgan narsaga aylantirishni, bu barcha mumkin bo'lgan hujayralar va vaziyatlarda gen faoliyatini tartibga solishning juda takomillashtirilgan usuli» demoqchiman. «Ushbu g'oyani qo'llab-quvvatlash bu KRAB ZFPlarning alohida guruhlari turli xil hujayralarda faol ekanligini aniqlash. Ular, shuningdek, turli xil turlarda o'ziga xos naqshlarda uchraydi. Agar ular viruslarni shunchaki bostirgan bo'lsalar, tortishuv davom etadi, barcha hujayralarda bir xil protein oqsillari bo'lishi kerak. Bundan tashqari, nima uchun ular Trono va uning jamoasi aniqlagan uzoq minglab o'lik virusli elementlarga bog'langan bo'lishi mumkin? O'lik retrovirusni bostirishning ma'nosi yo'q, shuning uchun ular gen faoliyatini boshqarishda muhim rol o'ynashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 9-10 sinf biologiya darsligi
2. knowlege jurnali

**TADQIQOT.UZ**  
**ТОМОНИДАН ТАШКИЛ ЭТИЛГАН**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"**  
**МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 17-КЎП ТАРМОҚЛИ**  
**ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ**  
**МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(2-қисм)**

**Маъсул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусахҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.06.2020

**Контакт редакций научных журналов.** [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000